

- G'at, g'at! G'ittir-g'it! G'at, g'at! G'ittir-g'it!..

G'ildiragi yog'lanmagan ko'takaravani eslatuvchi bu surunkali nag'ma shoir Nashvatiyning jonini hiqildoqqa keltirdi, qalamini xontaxtadagi qog'ozga sanchgudek urib, og'zini qo'shni xonaga zambaraklantirdi:

- Bas! Yig'ishtir! To'xtat! He, o'sha o'tmas arrangniB!

- Ha?! Nima gap?!

Oshxona tomondan siltovli tovush eshitilib, so'ng qo'lida kapgiri bilan Mashmashaxonning o'zi chiqib keldi. Nashvatiyning endigina buloqlanishni boshlagan so'zлari kekirdagida tuyqus ko'lmaklanib to'xtadi: "ar-r-rangniB is-s-sB

- Hey, inson! - kapgirni havoda selpitib shang'illadi Mashmashaxon. - Marmarqo'ziga yopishmang, deb sizga nechchi marta aytdim, a? Bolamning ilhomini bo'g'mang!

Qo'shni xonadagi Marmarqo'zi esa, ilhommi ancha-munchaga bo'g'ilmasligini oyijonisiga malum qilib qo'yemoqchidek, mashqini bir maromda davom ettiraverdi:

- G'at, g'at! G'ittir-g'it!..

- Men-chi? - irg'ishlanib o'rnidan turdi Nashvatiy. - Mening ilhomim tepalansa, maylimi?

- Ilhom? Voy, o'laqolay! Siz yozgan narsalargayam ilhom kerakmi hali?

- Og'zingni peshlab gapir, ho'v! Sherlarimni "narsa deyishga qanday tiling bordi?

Ha, "it vafo, xotin jafo, deganlari to'g'ri ekan. Shuncha birga yashab, xotini uning sherlariga, ko'ngil uchun bo'lsa-da, ko'z qirini tashlab qo'yanini eslolmaydi. Vaholanki, dunyoning sinoatlariga uchinchi qavatdan razm tashlash ishtiyoqi ila kecha bolkonga chiqib, qo'lidagi daftarni bexos tushirib yuborganida, pastda ivirsib yurgan yetti yet begona it o'qdek uchib kelib, uning sherlarini mislsiz qiziqish bilan uzoq iskab turdi. O'zi it, lekin adabiyotga bo'lgan izzatini qarang!

Odam degan unvon hayf bu xotinga. Agar, to'laqonli banda bo'lganida, avval xontaxtadagi qog'ozni olib, undagi bitikni o'qib ko'rardi. Yap-yangi sher-a!

Bahor keldi, aziz o'rtoqlar,

Ariqlarni tozalaylik sal.

Bo'lsin ular soqol qirdirgan -

Oshnam Abrey ko'sadek go'zal!

Allomabosh er shunday noananaviy satrlarni tarsa-turs kashf etib tashlansa-yu, uvadafahm xotin bundan bebahra yursa. Tag'in, o'qituvchimish. Teshigini ko'rmasa, nayni teshasopidan ajratolmaydi, musiqadan dars bergeniga o'lasanmi. Jonivorda qobiliyatning "Q harfiyam yo'q, tog'asi maktab direktorligidan urilsayoq, buniyam kuni bitadi.

- "Narsa bo'lmay, nima? - masxaraomuz lab burishtirdi Mashmashaxon. - Agar ular "sher bo'lganida, loaql birortasi gazeta-pazetada bosilmasmidi? Bu uydan Hamza chiqmadimi, endi o'g'limni o'zim Rastrapovich qilaman. Bizga xalaqtি bermang! Nashvatiy bu gapdan pishqirib kuldi:

- Voy, kallavaram-ey! Bo'yniga hushtak osgan har bir so'tak melisa bo'lavermaganidek, yoltayoq ushlashni o'rgangan hamma maxluqdanam Rastrapovich chiqavermaydi.

- Boshqalarini o'zingizga o'xshatmang. Qirqa kirgandayam na ishingizda tayin bor, na birov otingizni biladi. Mana, o'n bir yoshidayoq Marmarqo'zining istedodini tan olishdi, shu bolaning orqasidan magnitafonli bo'ldik, televizo'rli bo'ldik.

Nashvatiy o'zini bu olamdagи eng chigal kalavalarning uchini ham bir zehn solishdayoq topmoqqa qodir shaxslardan deb hisoblasa-da, aynan ana shu magnitofon va televizor bilan bog'liq jumboqni hali-hali yecholmay kelayotganidan qattiq iztirobda edi.

Bundan to'rt oylar oldin kimdir eshikning qo'ng'irog'ini cho'zg'ilantirib jiringlatishga tushdi. Uni choyxonapalovga chaqirmay qo'yan oqibatsiz ulfatlari haqida "Burgut va qorayaloqlar degan masal yozib o'tirgan shoir jonini ijod jannatidan mahrum etishga kuch topib, og'rinibgina o'rnidan qo'zg'aldi. Borib, eshikni ochganini biladi, karton quti qo'ltilqagan tappakburun kimsa chala-pula salomlashgan kuyi ichkariga suqilib kirib: "Biz ashaddiy muxlislardanmiz, shu xonadondagi istedodli zotni bir ziyyoratlab qo'yishga keluvdik, deb, bolalarining mis surnaychasidek ping'lladi. Buni eshitib, Nashvatiyning chehrasi yorishdi:

- Ortiqcha maqtab, odamni uyaltirmasınlar. To'g'ri, istedodimiz yetarli, ammo-lekin dovrug'imiz hali-hozir yetti iqlimga taralib ulgurgananicha yo'q.

- Hедемай taraladi! - qatiy ishonch bilan qosh kerdi tappakburun. - Zero, vilonchelning ishqibozi jahonda bitta menmas!

Bo'ridan gapirsang, qulog'i ko'rinati, deganlaridek, vilonchelning nomi tilga olinishi bilanoq, poygakdagi xonadan uning yuraktatarlar ovozi labbaylandi.

- G'at, g'at! G'ittir-g'it!..

Tappakburun bir Nashvatiyga, bir ohang taralayotgan yoqqa qarab qo'yib, "ie, maestro bu yoqda ekan-ku, deya beso'naqay tuflisini popillatganicha xonaga bostirib kirdi. Yig'lamsiragudek ahvolda mashq qilayotgan Marmarqo'zi va uning boshi ustida musht o'ynatib turgan zolim ustozni Mashmashaxon bilan tanishuv marosimi yakunlangach, tappakburun qo'lidagi qutini "maestroga tutqazib, tantanavor tarzda so'z qotdi:

- Qadrli Marmarqo'zi! Ijro etayotgan kuylaringiz jamoamizga g'o-o-yatda va niho-o-yatda manzur bo'lyapti. Shu bois, "Oynaqopqon qo'shma korxonasi rahbariyati nomidan sizga mana shu magnitofon sovg'a qilinadi. Tabriklayman! Bundan buyog'igayam, talablarga binoan, to'xtatmay chalaverasiz degan umiddamiz.

Tappakburunga qo'shilib, er-xotin ham angraygan asno chapak chalishdi.

- Chet ellarda istedodli yurtdoshlarini qo'llab yuradigan boylar ko'pligini eshitgandim, - og'zi qulog'iga yetib gijingladi Mashmashaxon. - Xayriyat, o'zbekdanam shunaqalar chiqibdi.

Oradan ikki oycha o'tib, tappakburun ushbu xonadonga yana tashrif buyurdi. Bu safar Marmarqo'ziga "Oynaqopqon qo'shma korxonasi boshlig'ining nomidan "Samsung televizorini topshirib: "Jamoamizning sizga bir iltimosi bor, Marmarqo'zi. Bundan keyin, talablarga binoan, yarim kechadayam mashq qiptursangiz, dedi-yu, Mashmashaxonning: "Hech bo'lmasa, bir piyola choy ichib keting, degan taklifini yerda qoldirib, zippa g'oyib bo'lди.

Shundan buyon Nashvatiyning boshi garang, ko'ngli xijil. Insof minbaridan turib aytildigan bo'lsa, Marmarqo'zida istedod bor-yo'qligini muhokamalashning o'zi kulgili. Mana, bir yildan oshyaptiki, hamon o'sha-o'sha nag'ma: "G'at, g'at! G'ittir-g'it! G'at, g'at! G'ittir-g'it! Nashvatiy-ku hozircha tirik, bu kuyni hatto o'likning yonida chalsang, kafanini yirtib tashlab, og'zingga shapaloq tortvorishi hech gapmas. Paqqos chidab bo'lmaydigan hol, agar, chidash mumkin bo'lsa, Nashvatiydek og'ir-bosiq shoir o'z o'glining ishidan xitlanib, nishdor sher yozarmidi?

"This is not registered version of TotalDocConverter

Bosib kelar go'yo sel.

Katta g'ijjak, vahshiy g'ijjak,

Gumdon bo'lqur vilonchel!

Shak-shubha yo'qli, bu g'ayritabiyy voqealarning ortida yirik bir sir yashirinib yotibdi. Taxmin ko'p, biroq shulardan ikkitaginasida g'ira-shira mantiq bordek: yo xotini uning shoirlig g'ururini toptash maqsadida bularni ataylab uyuştiriyapti, yo bo'lmasa, o'sha tappakburun jinnixonadan qochgan puldur kimsa.

- Shu magnitofon bilan televizorni hadeb tumshug'imga niqtayvermagin, - xotiniga zimdan ezginlanib tikildi Nashvatiy.- Bu dunyoda sheriyatga fahmi ilashadiganlar azaldan tanqis bo'lsa, men nima qilay?

Eshikning qo'ng'irog'i jiringlab, Mashmashaxonning javob nutqi og'zida qoldi. Nashvatiy burun jiyirganicha borib, eshikni ochdi. Xonodonning eski qadrdoniga aylana boshlagan tappakburun ichkariga lip etib kirib, Nashvatiy bilan qo'l siqib ko'risharkan, poygakdag'i xonadan tinimsiz taralib turgan "g'at, g'atga berilib quloq tutgan asno, mahliyolanib tebrandi. So'ng, shalviroq kostyuming cho'ntagidan allaqanday qog'ozni sug'urib, boshi uzra hilpiratdi:

- Xushxabar bor! Meni tezda Marmarqo'ziga ro'para qilinglar!

Tappakburun xonaga kiriboq, Marmarqo'zini quchoqlab o'pishga tutindi:

- Tabriklayman, maestro! Mana, yana mukofot opkeldim sizga!

- Bu qanaqa qog'oz? - qog'ozga bir suqlanib olib so'radi Mashmashxon.

- O'rder bu! - gavdasini selkillatib chimrildi tappakburun. - Ikki xonali tor kvartira yosh sozandaning erkini bo'g'adi. Shuni hisobga olib, yangi dahadan sizlarga to'rt xonali uy ajratishga qaror qildik.

Nashvatiyning aqldan ozishiga sal qoldi. Tili tanglayiga yopishib, "a-ab<sup>h</sup> o'rB<sup>h</sup> o'rB<sup>h</sup> deya g'o'ldiraganicha ko'zini baqratirdi. Mashmashxon o'g'lining qo'lidan o'rdeni och sirtlondek yulqilab olib, undagi yozuvlarni qayta-qayta o'qishga kirishdi:

Odatdagidek shoshib g'oyib bo'lishga shaylanayotgan tappakburun, Marmarqo'zining yelkasiga og'aynilarcha qoqib, ping'lladi:

- Jamoamizning yana bir iltimosi bor, Marmarqo'zi. Yangi uyga ko'chgandan keyin, talablarga binoan, bolkonga chiqib mashq qiladilar-da, a?

Masovsirashi hanuz bosilmagan Nashvatiy tappakburunni pastgacha kuzatib tushdi. Maqsadi - u bilan nihoyat yolg'iz qolib, asabini ko'pdan beri yundalayotgan savolga javob topish edi:

- Kechirasiz-ub<sup>h</sup> Bir savol boridi-dab<sup>h</sup>

Tappakburun Nashvatiyga iltifotlanib yuzlandi:

- Qulog'im sizda, taqsir.

- HmB<sup>h</sup> "Oynaqopqon korxonasidagilarning es-hushi joyidaligiga-ku shubham yo'g'-a, - chaynaldi Nashvatiy.- Shunga qaramayB<sup>h</sup> hmb<sup>h</sup> bu ishlarni tushunolmayroq turibman-dab<sup>h</sup>

- Mayli, tushuntiramiz, - olimona gerdaydi tappakburun. - Mana shu ko'p qavatlari uyda ikki yuz oltmishta xonodon bor.

Marmarqo'zi "g'at-g'ut qilishni boshlagandan beri atrofdagi ikki yuz ellik to'qqizta qo'shningiz tovush o'tmaydigan eshik-derazalar qudirishga majbur bo'ldi. Bunaqa eshik-derazalarni faqat biz ishlab chiqaramiz.

Nashvatiyning sopollangan ko'zi oldida nimadir yarq etib chaqnadi. Tilla tishlar shekilli. Demak, tappakburun iljayib turibdi.

2003